

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilmiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHAMMAD TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTIQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladi. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI

Azimov K.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya. Mazkur maqola dirijyor texnikasining nazariy masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada manual texnikaning xususiyatlari, uning o‘ziga xosligi xususida so‘z boradi. Mavzuda jahon, rus va o‘zbek tadqiqotchilarining izlanishlarini o‘rgangan holda, ko‘tarilgan masalani qiyosiy tahlil qilish uslubi qo‘llanilgan. O‘rganilgan ma’lumotlarga asoslanib, dirijyorlik texnikasi bu san’atning ajralmas qismi ekanligi, u o‘z ichiga bir necha vazifalarni qamrab olishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: dirijyor, orkestr, manual texnika, applikatura, auftakt, metr sxema.

Аннотация. Эта статья посвящена теоретическим вопросам дирижерской техники. В статье обсуждаются особенности мануальной техники и ее особенности. Изучая исследования всемирного, русского и узбекского исследователей, мы применяем сравнительный анализ. Основываясь на изученной информации, было установлено, что дирижерская техника является неотъемлемой частью этой статьи и включает в себя несколько задач.

Ключевые слова: дирижер, оркестр, ручная техника, аппликация, аутфакт, метрическая схема.

Abstract. This article deals with the theoretical questions of conducting technique. The article discusses the features of manual technology and its features. Studying the research of world, Russian and Uzbek researchers, we apply comparative analysis. Based on the information studied, it was found that conducting technique is an integral part of this article and includes several tasks.

Key words: conductor, orchestra, manual technique, application, aufтакт, metric scheme.

Kirish: Dirijyorlik texnikasi tushunchasi – keng qamrovli bo‘lib, nazariyada buni har xil tahlil qilishadi. Dastlab “texnika” so‘ziga ta’rif berib o‘tamiz. Bu so‘z “dirijyorlik” atamasi bilan birga qo‘llanilganda, hech qanday o‘zbek tili lug‘atidagi boshqa bir so‘z tarjimasiga muhtoj bo‘lmaydi. Sababi, bu iborada dirijyorlik san’atiga xos bo‘lgan manual (qo‘l) texnikasi tushuniladi. Garchi “texnika” so‘zi yunonchadan “mahorat”, “san’at” ma’nolarini anglati-da, mahalliy adabiyotlarda ham “dirijyorlik texnikasi” tushunchasi keltirilgan. Masalan, Ergash

Toshmatovning “Dirijyorlik” kitobida odatdagidek qo‘llanilgan bo‘lib, uning fikricha dirijyorlik texnikasi - bu qo‘llar harakatlari yordamida ijro etilayotgan musiqani talqin etishdir. Zohid Haqnazarov esa, bu bo‘limni o‘z ishida “virtuoz texnika” deb nomlaydi va u - “qo‘l harakatlarini metr sxema, auftakt, boshlanish, to‘xtashlarini o‘ylamasdan, avtomatik holatda ko‘rsatilishi – virtuoz texnika deb ataladi” [1; 194] - mazmundagi iqtibosni keltiradi. Mahalliy nashrlar xususida so‘z borar ekan, Z. Haqnazarov ishida sohaning umumiy tamoyillari asoslangan bo‘lsa-da, dirijyorlik texnikasiga bag‘ishlangan bob, katta hajmni tashkil qiladi. Ya’ni u dirijyorlik apparati, qo‘llarning vazifalari, amplituda, auftakt, tayoqcha, psixologik dirijyorlik, jo‘rnavor bilan ishlash kabi masalalarning barchasini shu bo‘limda jamlaydi. E.Toshmatovda esa aksincha. U bularning barchasini “dirijyorlik mahoratini egallash” deb tushunadi. Dirijyorlik texnikasi bu bobning kichik bir mavzusi sifatida o‘rin egallagan.

Asosiy qism. Aslida dirijyorlikka oid kitoblarning barchasida texnika haqida bo‘lim mavjud. Ammo aynan “dirijyorlik texnikasi” deb alohida ta’rif bergan holda uning tafsilotlari bayon etilgan ishlardan M.Bagrinovskiy, N.Malko, I.Musin, L.Matalayevlarni sanab o‘tish mumkin. Biz bu adabiyotlarni tayanch manba sifatida e’tirof etamiz. Chunki bu mualliflar masalaga sohaning asosi tariqasida urg‘u berib, uning maqsad va vazifalarini nazariy jihatidan batafsil yoritgan yirik ish hisoblanadi. Masalan, M.Bagrinovskiy texnika masalasini besh bosqichga bo‘lib, uslubiy tomonidan o‘rganadi. Garchi uning kitobi badiiy-havaskor jamoalarni boshqaruvchi xor va orkestr rahbarlariga mo‘ljallagan bo‘lsa-da, uslubiy-amaliy misollarga boy yigirma besh bo‘lim, asosini tashkil qiladi. Atoqli rus dirijyori N.Malko esa, bu ishni olti bobga ajratgan holdan o‘rganadi va ulardan birini “Dirijyorlik harakati (dirijyorlik texnikasining elementlari)” deb nomlaydi. M.Bagrinovskiydan farqli ravishda u “texnikaning elementlari” degan tushunchani ilgari surib, pauzalar, auftakt, shtrixlar, dinamika, agogika, fermato kabi masalalarga oydinlik kiritadi. Bularning orasida “kinetika” atamasini qo‘llagan. Turli musiqiy-ifodaviy vositalarni aks ettirishda qo‘l texnikasini shakllantirish uchun berilgan misollar va amaliy tavsiyalar kasbiy ko‘nikmalarni hosil qiladi.

I.Musinning dirijyorlik texnikasiga bag‘ishlangan ishlari tahsinga loyiq. Ma’lumki, u dirijyorlik sohasida o‘z uslubiga ega mohir pedagog bo‘lgani sababli, bu masalani ta’limot bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Uning ishida texnika masalasi oddiy bosqichdan (taktlash) to murakkabgacha (kompleks harakat, intonasion aloqalarni qo‘rsatish) aks etgan. Buning tasdig‘i o‘n ikkita dars misolida tuzilgan reja hamda uning yordamida o‘quvchilarning qo‘l texnikasini oshirishga xizmat

qiladigan mashqlar va beriladigan ijro dasturi ro'yxati misollarida ko'rinadi. Uning o'zi ta'kidlaganidek, "bizning e'tiborimiz doimo ushbu texnikani o'zlashtirish usullariga qaratildi, chunki zamonaviy dirijyorlik ham yuqori texnik mahoratni talab qiladi" [2, 291] – deydi I.Musin (tarjima bizniki – K.A.).

N.Malko, M.Kanershteyn va I.Musinlar dirijyorlik texnikasi savollariga bag'ishlangan bo'lsa, boshqa ishlarda nazariy va ijrochilik muammolari aks topadi. Bunday ishlardan L.Matalayevning kitobi bo'lib, u bu masalani zamonaviy dirijyorlar tajribasini umumlashtirib, har birining o'ziga xos maktabi va uslublari muajassamlashtirgan holda o'rganadi. Muallif har bir texnik muammoni aniq o'zlashtirishi uchun nazariy qismni amaliy misollar va mashqlar bilan bog'laydi. Uning so'zlariga ko'ra, "zamonaviy dirijyorlik texnikasi deganda, har ikkala qo'lni alohida mukammal bo'lishi, harakatlarda parallelizmni olib tashlash, ayniqsa chap qo'lning o'ng qo'l kabi faol bo'lmashini nazarda tutadi. Parallel harakatlanadigan chap qo'l dirijyorning nochorligini belgilaydi" [3; 185] (tarjima bizniki – K.A.).

Yuqorida aytganimizdek, dirijyorlik texnikasi borasida uning nazariyasi bilan shug'ullangan amaliyotchi-dirijyorlarning qarashlari turlicha. Misol uchun M. Bagrinovskiyning aytishicha [4; 281], qo'llarning dirijyorlik texnikasi deganda manual texnika yoki taktilash tushuniladi. N. Malkoning ta'biri bilan esa, "dirijyor ideal holatda, kompozitorning barcha ko'rsatmalarini ifodalashi shart. Buning uchun u dirijyorlik texnikasiga ega bo'lishi kerak. Uning asosini esa taktilash tashkil qiladi. Ammo biz faqat u bilan chegaralanib qolishimiz kerak emas. Oddiy tovushlar sxemasini jonli musiqaga aylanadigan texnik usullarni o'rganishimiz kerak. Oxir-oqibat harakat dirijyorlik texnikasining asosiy elementidir. Va uning yordamida ijrochining bitmas-tuganmas imkoniyatlari namoyon bo'ladi" [5; 216] (tarjima bizniki – K.A.). L. Matalayevning fikricha [6; 11], dirijyorlik texnikasi - birinchi navbatda dirijyor tomonidan ijro etilayotgan musiqani qo'llarning harakatlari yordamida to'g'ridan-to'g'ri ijro etishdir.

Ammo S. Kazachkov [Дирижёрский аппарат и его постановка. -М.: Музыка, 1967.], G. Rojdestvenskiylar [Дирижёрская аппликатура. -Л.: Музыка, 1974.] bu borada boshqacha yondashishadi. Ular texnika masalasini dirijyorlik apparati, postanovkasi va "dirijyorlik applikaturasi" atamallari bilan bog'laydi. S. Kazachkov dirijyorlik texnikasini asosida apparat, postanovka, qo'l harakatlari yotadi deb unga quyidagicha ta'rif beradi: "dirijyorlik texnikasi – juda muhim, ammo bu san'atning yagona tarkibiy qismidan uzoqdir. Agar dirijyorda rivojlangan musiqiy fikrlash qobiliyati, tasavvur va irodaga ega bo'lmasa, u musiqaning janrlari, uslublari, shakllari va ifodaviy vositalarning xilma-xilligini yaxshi tushunmasa, xor va orkestr bilan mashg'ulotlar olib borishda ojiz bo'lsa, unda hech

qanday tashqi dirijyorlik texnikasi uning professional-badiiy qiyofasidagi kamchiliklarini to'ldirmaydi" [7; 110] (tarjima bizniki – K.A.). Bu fikrga qo'shimcha tarzda aytish mumkinki, S.Kazachkov dirijyorlik texnikasiga maqsad deb emas balki, faqat ijodiy g'oyalarni amalga oshirish vositasi sifatida baho beradi. G.Rojdestvenskiy esa, sohaga "applikatura" degan tushunchani olib kiradi. Bilamizki, musiqada cholg'u ijrochiligiga xos bo'lgan bu atama barmoqlar joylashuvini anglatadi. "Dirijyorlik applikaturasini – bu qo'llar vazifasini taqsimlash, va musiqiy asarning janr, temp, ladogarmonik, metroritmik, shtrix va dinamik xususiyatlariga mos keladigan dirijyor sxemasining aniq tasvirdagi boshqaruv jarayonlarini ko'rsatish tartibini belgilash. Dirijyorlik applikaturasini tanlash muallif g'oyasiga ham, dirijyor talqiniga ham bog'liq" [8] (tarjima bizniki – K.A.). G. Rojdestvenskiy sohada nafaqat yirik dirijyor, balki nazariyotchi-publisist sifatida ham nom qozongan. Uning «Мысли о музыке» (-M.: Советский композитор. 1975), «Преамбулы» (-M.: Советский композитор, 1989), «Треугольники: триптих» (-M.: Слово/Slovo, 2001, с аудио-приложением), «Мозаика» (-M.: Московская консерватория, 2011), "Глоссы" (-M.: Московская консерватория, 2023) kabi ishlari shular jumlasidandir. Ammo biz tilga olgan uning ilk ishlaridan biri "Дирижёрская аппликатура" kitobining maqsadiga izoh berib: "o'quvchini (birinchi navbatda yosh dirijyorni) dirijyorlik san'atining o'ta muhim jihatlaridan biri – temp va puls hissi, ularning o'zaro ta'siri bilan bog'liq ba'zi fikrlar bilan tanishtirish" [9; 23] (tarjima bizniki – K.A.) xaqida iqtibos keltiradi. U tajribasidagi kuzatishlaridan kelib chiqib, amaliy misollar yordamida bir necha masalalarni jumladan, qadriyatlarni qayta baholash muammosini ko'taradi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, S.Kazachkov dirijyorlik texnikasi masalasiga muammo darajasida, sohaning muhim tarmog'i sifatida qaramasa, G.Rojdestvenskiy esa aksincha, buni qamrovi keng, murakkab va boy deb tushunadi.

Yuqoridagi tahlillarimizdan kelib chiqib, aytish mumkinki, dirijyorlik texnikasi bu san'atning ajralmas qismi bo'lib, uning asosini tashkil qiladi. U o'z ichiga bir necha vazifalarni qamrab oladi, shulardan:

- kompozitor g'oyasini ochish;
- asarni talqin etish;
- musiqiy asarning ifodaviy vositalari xususiyatini namoyon etish;
- kasbiy mahoratni belgilash;
- jamoa ijrochiligining professional ijrosiga erishish;

Bugungi kunda dirijyorlik texnikasi nazariyasini zamonaviy dirijyorlik san'ati nuqtai-nazardan tahlil etib o'rganish, muammolar yuzasidan kelib chiqib

ularni amaliyotga tadbiq qilish kabi masalalar ko'tarilmoqda. Dirijyorlik san'atida bu masalani tor doirada ya'ni, faqatgina "manual (qo'l) texnika" deb tushunish, nazariy qarashlarni chegaralab qo'yadi. Shuning uchun ham musiqashunoslikda, dirijyorlik san'atining bu yo'nalishi bo'yicha nazariy bilimlarni yanada oshirish, zamonaviy amaliyotchi-tadqiqotchilar tajribasi asosida adabiyotlar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haqnazarov Z. Dirijorlik haqida. - T.: 2012. - B. 253.
2. Мусин И. Техника дирижирования. - Л.: Музыка, 1967. - С. 352.
3. Маталаев Л. Основы дирижерской техники. // Методическое пособие. - М.: Сов. композитор, 1986. - С. 208.
4. Багриновский М. Дирижерская техника рук. - М.: Высш. уч. воен. Дирижёр, 1947. - С. 296.
5. Малько Н. Основы дирижерской техники. - М.: Музыка, 1965. - С. 220.
6. Маталаев Л. Основы дирижерской техники. // Методическое пособие. - М.: Сов. композитор, 1986. - С. 208.
7. Казачков С. Дирижёрский аппарат и его постановка. - М.: Музыка, 1967. - С. 112.
8. <https://scienceforum.ru/2019/article/2018015169>
9. Рождественский Г. Глоссы. - М.: Московская консерватория, 2023. - С. 892.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIW SHÍLÍGÍNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN‘ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARIDA MUZIKA SABAQLARIDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

